

002
R30

Ranmatullayev M.A.
G'aniyeva B.I.
Salayeva Y.U.

ILMMETRIYA ASOSLARI

ILMMETRIYA ASOSLARI

UO‘K 002.4
KBK 78.34

Rahmatullayev M.A., G‘aniyeva B.I., Salayeva Y.U.
ILMMETRIYA ASOSLARI. – Toshkent: OOO “Yosh kuch”,
2021.- 82 b.

Zamonaviy ta’limning rivojlanishi ilmiy ta’limiy axborotlarning yangi manbaalarining mavjudligiga bog‘liq bo‘lib, qimmatli axborot manbaalaridan foydalanishga bo‘lgan imkoniyatning mavjudligi, o‘quv materiallarini sifatini bir necha bor ortishiga, shuningdek, olingan bilimlarni ilmiy va kasbiy faoliyatda qo‘llashga imkon yaratadi. Mazkur monografiya ilmmetriyaning asosiy tushunchalari, ilmmetrik ko‘rsatkichlarni baholash usullari masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ilmmetriya, analitik axborot tizimlari va ularning ishlash usullari va texnologiyalari haqida umumiy tushuncha beradi. Monografiyada "Jahon axborot resurslari" kursini chuqur o‘rganish uchun qo‘shimcha materiallar mavjud.

Monografiya materiallari doktorantlar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda talabalar uslubiy yordam ko‘rsatish, O‘zbekistonda erkin foydalanish uchun taqdim etilgan analitik axborot tizimlari va ularning ishlash usullari va texnologiyalari haqida umumiy tushuncha berishdan iboratdir. Shu jumladan, analitik axborot tizimlaridan foydalanuvchi keng kitobxonlar ommasi, axborot kutubxona xizmati darajasini oshirishni istagan kutubxonachilar uchun ham foydali bo‘ladi.

UO‘K 002.4
KBK 78.34

Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Ilmiy-texnik kengashning 2021 yilning 23 fevraldagi 2-21-sonli bayonnoma asosida nashrga tavsiya qilindi.

ISBN 978-9943-7083-3-4

© “Yosh kuch”, 2021.

MUNDARIJA

QISQARTMALAR RO'YXATI	4
KIRISH	5
I BOB. ILMMETRIK VA ANALITIK AXBOROT TIZIMLARI	8
1.1. Ilmmetriyaning asosiy tushunchalari	8
1.2 Axborot analitik tizimlarining asosiy tushunchalari maqsadi va vazifalari.	16
1.3. Web of Science, Scopus, PlumX kabi axborot analitik tizimlari	18
II BOB. ILMIY TADQIQOTCHILARNING SHAXSIY PROFILINI SHAKLLANISHI	30
2.1 Scopus va Wos analitik tizimlarida mualliflik profillarini yaratish usullari	30
2.2.“SCOPUS” Analitik axborot tizimidan foydalanish usullari	39
2.3. Mendeley ilmiy-tahliliy dasturi	49
III BOB O'ZBEKISTONDA ANALITIK AXBOROT TIZIMLARINING QO'LLANILISHI	56
3.1 O'zbekistonda ilmiy jurnallardan foydalanishning tahlili	56
3.2 O'zbekistonda chop qilingan jurnallarni Analitik axborot tizimlariga kiritish bo'yicha tavsiyalar	58
XULOSA	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI	63
ILOVALAR	68
1. Ilmmeriya Lug`ati	68
2.Scopus va Web of Science ro'yxatiga kiritilgan axborot texnologiyalari sohasiga tegishli jurnallar ro'yxati	71

QISQARTMALAR RO'YXATI

AAT- Analitik axborot tizimlari

AKT – Axborot kutubxona tizimi

OTM – Oliy ta'lim muassasalari

DOI– Digital object identifier (raqamli ob'ektni indikator)

ISBN – International standart book number (xalqaro yagona kitob raqami)

ISSN - International standard serial number (turkum (seriyali) nashrlarning xalqaro standart raqami)

IF - Impact Factor

ORCID -Open Researcher va Contributor ID (ochiq tadqiqotchi va ishtirokchi ID no'meri)

Researcher ID- Tadqiqotchi ID raqami

JCR - Journal Citation Reports

SJR - SCIMago Journal Rank

WoS - Web of Science

URL - Uniform Resource Locator (internet manzil)

h-index – Xirsh indeksi

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy ta'limning rivojlanishi faqatgina fanlarni o'rganishning zamonaviy usullarini modernizatsiyalash va takomillashtirish uchun xizmat qiladigan axborot texnologiyalarini takomillasuvi bilan emas, balki ilmiy ta'limiy axborotlarning yangi manbaalarining mavjudligi bilan belgilanadi. Qimmatli axborot manbaalaridan foydalanishga bo'lgan imkoniyatning mavjudligi, o'quv materiallarini sifatini bir necha bor ortishiga, shuningdek, olingan bilimlarni ilmiy va kasbiy faoliyatda qo'llashga imkon yaratadi. Ushbu monografiyaning asosiy maqsadi o'qituvchilar, tadqiqotchilar, doktorantlar va talabalarga uslubiy yordam ko'rsatish, O'zbekistonda erkin foydalanish uchun taqdim etilgan analitik axborot tizimlari va ularning ishlash usullari va texnologiyalari haqida umumiy tushuncha berishdan iboratdir.

Hozirda respublikamizda "Sciencedirect", "Science of Core Collection" tizimiga kiruvchi jurnallarda ilmiy maqolalarni nashr etish, rivojlangan mamlakatlarda ilmiy daraja va ilmiy unvonlarni belgilash qoidalariga tayangan holda faoliyat yuritish alohida ahamiyatga ega. Clarivate Analytics kompaniyasini Web of Science tizimi, Elsevier kompaniyasining Scopus tizimlari ilm-fan sohasidagi o'zgarishlar, ilmiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini kuchaytirish, ularni reytingga ega nashrlarda sinovdan o'tkazish, global ilmiy makonga integratsiyalashuviga, shuningdek xorijiy hamkasblar bilan birgalikda tadqiqotlar olib borishga, dunyo miqyosida O'zbekiston universitetlarini tanilishiga, olimlarimizni ilmiy asarlarini keng yoyilishiga, bu orqali dunyo ilmiy ta'limiy resurslariga o'z hissasini qo'shish, u yoki bu sohaning olimlari o'rtasida nufuzga ega bo'lishga yo'naltiradi.

O'zbekistonning ilmiy jurnallarini jahonning davriy ilmiy nashrlari standartlariga mos talablar darajasiga ko'tarish, bu orqali, Web of Science Core Collection xalqaro ma'lumotlar bazasida jurnallar sonini ko'paytirish hamda respublikada fanning rivojlanishiga ta'sir o'tkazish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatning ilmiy sohadagi yangiliklari bu davom etayotgan tadqiqotlarning obyektiv va zaruriy baholanishidir. Tadqiqot natijalarini yuqori ta'sir omiliga ega jurnallarda chop etilishiga ahamiyat qaratish, turli sohalarida faol ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarimizning ilmiy izlanishlarini bunday jurnallarda chop etilishiga e'tibor qaratish, bu tadqiqot global miqyosda ilmiy jamoatchilikka va ijobiy ilmiy salohiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ilmiy nashr tadqiqotchining ilmiy yutuqlarining asosiy ko'rsatkichidir. Iqtibosning mavjudligi esa

mazkur ilmiy ishlarning qanchalik darajada ahamiyatli ekanini aniqlovchi ko'rsatkichidir. Shuning uchun nafaqat maqola chop etish, balki maqolani qayerda nashr etilishi to'g'risida qaror qabul qilish ham muhimdir. Bu oddiy savol emas, balki jurnalning mazkur sohada tutgan o'rni, nashrning reyting ko'rsatkichi, chop etilish narxi, ilmiy asarni ko'rib chiqilish shart sharoitlari, tahrir qilish muddatlari va boshqa shu kabi ko'rsatkichlar bilan bog'liq.

Noshirlik faoliyat ko'rsatkichlarning past darajada bo'lishining asosiy muammolari mavjud:

1. Ko'plab yosh olimlar, doktorantlar, magistratura talabalar o'z ilmiy maqolalarini qayerga va qanday jo'natish ma'lumotlariga ega emasligi;
2. Ilmiy maqolalarni tayyorlashda, nashr talablariga mos keladigan muayyan qoidalarni, ilmiy maqolani rasmiylashtirish talablarini bilmasligi, talab etiladigan standartlarga moslashtirish malakasiga ega emasligi;
3. Maqolalarni tayyorlash bo'yicha madaniyatga ega emasligi, matnlarni yozish jarayonida mualliflik huquqi tushunchalari va qoidalaridan bexabarligi;
4. Xorijiy ilmiy adabiyotlarni o'qish va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini yetarlicha shakllanmagani;
5. Yuqori darajadagi ilmiy jurnallarda ilmiy maqolalar yozish uchun chet tillarini (asosan ingliz tilini) yetarli darajada bilmaslik. Bilsa ham mutaxassislik terminologiyasiga yetarli e'tibor qaratmaslik kabilardir.

Ma'lumki, ilmiy adabiyotlarni ko'p mutolaa qilishlik, ilmiy maqolalarni qanday yozish ko'nikmasini beradi. Shu sababli, yetakchi ilmiy jurnallarni o'qish darajasini oshirish xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilayotgan maqolalar sonining ko'payishida muhim omil hisoblanadi.

- ✓ Ilmiy jurnalda maqola chop etish uchun ishni nimadan boshlash kerak?
- ✓ Ilmiy maqola chop etish uchun tadqiqot mavzusiga mos keladigan jurnallarni qanday topish mumkin?
- ✓ Maqola qanday rasmiylashtiriladi?
- ✓ Tadqiqot mavzusi bo'yicha faoliyat olib boradigan hamkorlarni qanday topish mumkin?

Shu kabi savollarga analitik axborot tizimlari javob beradi.

Ilmiy axborot resurslarining odatiy ma'lumotlar bazalaridan farqli ravishda analitik ma'lumotlar bazasi (yoki analitik axborot tizimi) manbalarining o'zlari (jurnallar, maqolalar, kitoblar va boshqalar) haqida

qimmatli analitik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, shuningdek, mualliflar va tashkilotlarning reytinglarini Impact-faktor, Hirsh indeksi va boshqa mezonlarga ko'ra fanga qo'shgan hissasiga qarab shakllantiradi.

Bunday axborot tizimlar muhim analitik vazifalarni barajaradi.

1. Eng ko'p murojaat qilingan va shunga mos ravishda yuqori ilmiy qiymatga ega bo'lgan ilmiy manbalarni (jurnallar, kitoblar, hisobotlar va boshqalar) aniqlashga yordam beradi;

2. Ilmiy nashrlar o'z reytingini oshirish uchun ilmiy jurnallarining sifatini oshirishga va kuchli mualliflarni jalb qilish orqali ushbu ma'lumot bazalari ro'yxatiga kirishga intiladi;

3. Yosh tadqiqotchilar o'z sohasida yetakchi bo'lgan olimlar ro'yxatidan foydalangan holda o'zlariga ilmiy rahbarlar topishlari mumkin;

4. Tadqiqotchilar ilmiy tadqiqotlarning to'g'ri strategiyasini tanlashga imkon beruvchi jahon miqyosda ilmiy izlanishlar va ilmiy ishlarning rivojlanish tendentsiyalarini kuzatishi mumkin.

I BOB. ILMMETRIK VA ANALITIK AXBOROT TIZIMLARI

1.1. Ilmetriyaning asosiy tushunchalari


So'nggi paytlarda ayrim tadqiqotchilar, ilmiy tashkilotlar, ilmiy faoliyat samaradorligini baholashda umuman fanning holati, bibliometrik usullardan tobora ko'proq foydalanmoqda. Bibliometriya, ilmmetrika, axborotmetriya va hokazolar deb nomlanuvchi sohalarga katta qiziqish uyg'onmoqda. Ular bizga rasmiy miqdoriy ko'rsatkichlardan bibliometrik ko'rsatkichlar asosida ekspert xulosalarini olishimizga imkon beradi. Quyida axborotmetriya (infometriya)ning ajralmas elementlari bo'lgan ilmmetriya, bibliometriya, kibernetriya, vebometriya, almmetriya tushunchalari o'rtasidagi farqlar ta'riflangan:

"AXBOROTMETRIYA" (Infometriya) – bu ma'lumotlarning, axborot jarayonlari va hodisalarining miqdoriy tomonlarini o'rganadigan fan. Informatika tadqiqotlari axborot jarayonlarida empirik qonuniyatlarni aniqlashga, olingan matematik bog'liqlikni asoslashga, informatsion modellarni yaratishga va uning nazariy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Axborotmetriya – bu informatika bilan bog'liq barcha metrik tadqiqotlarni, shu jumladan bibliometriya, ilmmetrika, webometriya kabi keng qamrovli tushunchadir.

"FANSHUNOSLIK" (Naukavedenie) – ilm-fanning ishlash va rivojlanish qonunlarini, ilmiy faoliyatning tuzilishi va dinamikasini, fanning boshqa ijtimoiy institutlar, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti sohalari bilan o'zaro hamkorligini o'rganadigan tadqiqot sohasi.

Agar "fanshunoslik" ilm-fanni keng ijtimoiy, tarixiy va falsafiy kontekstda ko'rib chiqadigan tadqiqot sohasi bo'lsa, unda naukometriya, bibliometriya va webometriya – bu ilm-fanni miqdoriy usullar bilan o'rganadigan amaliy sohalardir.



1-rasm. Ilmmetriya, Bibliometriya va Webometrika Fanshunoslkning bir qismi sifatida.

“ILMMETRIYA” (Sciencemetrics, Наукометрия) – (inglizcha Scientometrics – ilm-fanni o‘lchash) fanning evolyusiyasini ko‘plab o‘lchovlar va ilmiy ma’lumotlarning statistik hisobi (ma’lum bir davrda e’lon qilingan ilmiy maqolalar soni, takrorlash va boshqalar) orqali o‘rganadigan soha bo‘lib, u oliy o‘quv yurtlarida, ilmiy muassasalarda ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiylik darajasini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilmmetriyaning obyekti jamiyatning ilmiy sohasidir. Ilmmetriya predmeti ilmiy aloqalarni monitoring qilish orqali tadqiqot faoliyatini baholash va loyihalashdir. Ilmmetriyada quyidagi umumiy tadqiqot usullari qo‘llaniladi: bibliometrika, statistik xarakterga ega bo‘lgan baholash, tahliliy va ekspert baholari.

“Ilmmetriya” atamasi ilk bor V.V Nalimovning V.M. Mulchenko bilan birgalikda nashr etilgan «Наукометрия: Изучение науки, как информационного процесса» (1969) monografiyasida qo‘llanilgan.¹

Eng intellektual darajani murakkab ilmiy faoliyatlardan biri bo‘lgan “Ilmmetriya” ning formulasidan foydalanib baholash oson emas, degan fikr

¹Biblio/Sciento/Infor-metrics: Terminological Issues and Early Historical Developments. Chapter One. Nicolas De Bellis. Bibliometricsand Citation Analysis. From the Science Citation Index to Cybermetrics. 2009. Pp1-23

bor. Shunga qaramasdan, ma'lum ilmiy sohalarida ilmiy ma'lumotlarning yakka miqdoriy xususiyatlarini o'lchashda ilmmetriya qo'llaniladi.

So'nggi yillarda dunyoda ilmiy metodik ma'lumotlar (birinchi navbatda, Hirsh indeksi) ilmiy muassasalar va alohida ilmiy tadqiqotchilar tomonidan keng istifoda etilmoqda. Ilmiy metodik baholash ayniqsa gumanitar fanlarga nisbatan ishlatilganda ko'pincha tanqid qilinsa-da, ilmmetriya, bibliometriya va webometriya bilan birga ilmiy baholashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ilmmetriyaning quyidagi usullari mavjud:

- iqtiboslarni tahlil qilish;
- tavsiya jurnallarini tahlil qilish;
- ayrim mualliflar, mamlakatlar va ilmiy jamoalarning nashrlarini miqdoriy tahlil qilish;
- statistik tahlil usullari, ekspert baholash va noaniq mantiq;
- ilmiy hujjatlarning ko'payish, eskirish, tartibli taqsimlanishi qonunlarini o'rganish;
- matnlarni semantik tahlil qilish va intellektual qidiruv usullariga oid ilmiy hujjatlarning kontent-tahlili;
- ilmiy hujjatlarni taqsimlash bilan bog'liq boshqa usullar.

BIBLIOMETRIYA - "Bibliometriya" – bosma nashrlarning statistik tahlilidir. Bibliometrik usullar kutubxona va axborotlashtirish sohasida, shu jumladan, ilmmetriya sohalarida qo'llaniladi. Fanning bibliometrik tahlilida o'rganish obyektlari turli mezonlarga ko'ra guruhlangan nashrlar (hujjat aylanish segmentlari, mikroflotlar): mualliflar, jurnallar, mavzular sarlavhalari, mamlakatlar va boshqalar bo'yicha olinadi. Masalan, bibliometriyalar akademik adabiyotlarni miqdoriy tahlil qilish uchun yoki byudjet xarajatlarini baholash uchun ishlatiladi.

Atamalar asosida tahlil qilish, tez-tez ishlatiladigan bibliometrik usul bo'lib, bu atamalar grafigini, hujjat orasidagi yozuvlarning tarmoq yoki grafik ifodasini asoslaydi. Ko'pgina tadqiqot yo'nalishlari o'zlarining ta'sirini o'rganish uchun bibliometrik usullarni, tadqiqotchilarning ta'sirini, muayyan qog'ozning ta'sirini yoki muayyan tadqiqot sohasidagi ta'sirli hujjatlarni aniqlash uchun foydalanadi. Bibliometriya ham boshqa qo'llanmalarga o'xshab keng qamrovga ega, masalan tavsiflovchi

lingvistika, lug'atlarning rivojlanishi va foydalanishni baholash kabi turli xil ilovalari mavjud.²

Tarixiy jihatdan ilmiy jurnallar orasidagi aloqalarni tekshirish uchun bibliometrik usullardan foydalanilgan. Materiallarni izlashda va ularning qiymatini tahlil qilishda obyektning havola qilayotgan hujjatlarini o'rganish bilan tahlil qilishda ishlatiladi. Ilmiy ma'lumotlarning veb-saytlari kabi ko'rsatkichlari tahlilini, foydalanuvchilar ma'lum bir maqolada foydalangan adabiyotlardan bilib olamiz. Muayyan maqolalar, mualliflar va nashrlarning mashhurligi va ta'sirini aniqlash uchun sarlavha indeksidan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin.

Masalan, o'z ishining ahamiyatini o'lchash uchun sarlavhalar tahlili yordamida xizmatni ko'rib chiqish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotchilar, shuningdek, asosiy fan jurnallari va maxsus nashrlarni nashrlarda miqdor jihatidan baholash uchun atamaviy tahlilni qo'llaydi;

WEBOMETRIYA- butun dunyo bo'ylab Internet tarmog'ining tuzilmasi va ulardan foydalanish usullari haqida bilim olish, ma'lumotlarga berilgan havolalar qiymati uchun World Wide Web ni o'lchash atamasi hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va veb-makonning shakllanishi bilan metrik tadqiqotlarning yangi shartlari paydo bo'ldi – kibernetriya va webometriya, ma'lumotni elektron shaklda qayta ishlash, uni vizualizatsiya qilish va ma'lumot olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Kibernetriya veb-sahifalarning tabiati va xususiyatlarini, shuningdek, bibliometrik usullardan foydalangan holda butun dunyo bo'ylab web metodologiyasini o'rganadi.

Shunday qilib, ma'lumotlar bazalari va ularda saqlanadigan ma'lumotlarni tahlil qilishning kompyuter usullari, xususan, Textmining va Datamining usullari paydo bo'ldi. Textmining ishlashi – strukturatsiz matn massivlarida yangi bilimlarni topish. Datamining – ma'lumotlar bazasida saqlanadigan katta miqdordagi tuzilgan ma'lumotlardan ilgari noma'lum, ammo amaliy foydali ma'lumotlarni, shu jumladan, yashirin nashrlarni, dalillarni, noma'lum aloqalarni va boshqalarni topish.

Björneborn va Ingwersen (2004) ning fikriga ko'ra, webometriyaning ta'rifi "bibliometrik va informatsion yondashuvlarda web-chizmalarda axborot resurslarini, tuzilmalari va texnologiyalarini qurish va ulardan foydalanishning miqdoriy jihatlarini o'rganishdir". Webometriya atamasi

²The Mathematical Foundation of Bibliometrics. Chapter Four. Nicolas De Bellis. Bibliometrics and Citation Analysis. From the ScienceCitation Index to Cybermetrics. 2009. Pp 75-141

avval Almind va Ingwersen (1997) tomonidan yaratilgan. Webometriyaning ikkinchi ta'rifi – "tadqiqotning bir sohasiga xos bo'lmagan texnikani qo'llash orqali web-kontentni asosan ijtimoiy-ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun miqdoriy usullar bilan o'rganish" Thelwall (2009) tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu muqobil ta'rifning maqsadi axborot ilm-fanning dastlabki ta'rifini almashtirish o'rniga, axborot fanidan tashqarida tegishli usullarni ommalashtirishga yordam berishdan iborat edi.³

Ingwersen (1998) tomonidan "Web Impact Factor" (WIF) taqdim etilgan. WIF o'lchovi web-saytdagi web-sahifalar soni sifatida boshqa saytlardan olingan web-sahifalar soniga bo'linadi. Biroq, ushbu o'zgaruvchining kuch huquqiy taqsimotidan kelib chiqadigan matematik artefaktlar tufayli WIFdan foydalanish e'tiborga olinmadi. Tashkilotning kattaligidan foydalanib, web-sahifalar soni o'rniga boshqa shunga o'xshash ko'rsatkichlar ham foydali hisoblanadi.

IQTIBOS – bu muallifning o'z asarida matnlarning qismlarini (formulalar, rasmlar, jadvallar va boshqa elementlar) boshqa manbalardan olishi. Iqtibos har qanday ilmiy ishning ajralmas qismi va ilmiy aloqaning muhim vositalaridan biridir.

Iqtibos:

- tadqiqotchini asl manbaga yo'llaydi va sizga ilmiy ishning asosiy g'oyalari bilan tanishish imkonini beradi;
- iqtiboslar nufuzli olimlarni qo'llab-quvvatlash orqali ilmiy ishlarni kuchaytiradi;
- aloqalarning sifati va miqdori tadqiqotning sifati va teranligini aks ettiradi;
- barcha manbalar ham aniq ma'lumotni yoki qiziqarli fikrlarni taklif qilgan holda, iqtibos keltirishda aks ettirilishi mumkin bo'lgan ishonchli ma'lumotlarni beravermaydi.

IMPACT FACTOR (IF) – har yili Web of Science tomonidan hisoblab chiqilib, Journal Citation Reportda nashr etiladigan muayyan ilmiy jurnalning ahamiyatlilik darajasi to'g'risidagi raqamli ko'rsatkichdir.

Bu ko'rsatkich oldin AQShning Ilmiy axborot instituti – Institute for Scientific Information (ISI) tomonidan hisoblab chiqilgan. Jurnalda chop etilgan har bir maqoladan nashr etilganidan keyingi ikki yil ichida o'rtacha

³www.webometrics.info/en

necha marta iqtibos keltirilishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari nashr etilgan jurnallarning ahamiyatlilik omili ushbu natijalarni baholashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.⁴

Impact Faktorni hisoblash ikki yillik davrga asoslangan bo'lib, ikki yillik maqolaga berilgan iqtiboslar sonining chop qilingan maqolalar soniga nisbatini o'z ichiga oladi.

Masalan: 2019 yilgi IF jurnalini hisoblash:


A = 2018 va 2017 yillarda chop etilgan maqola keltirilgan iqtiboslar soni (2019 yil davomida indekslangan jurnallar tomonidan keltiriladi).

B = 2016 va 2017 yillarda nashrning umumiy soni.

$$\text{IF}_{2019} = \frac{\text{Iqtibos}_{2018} + \text{Iqtibos}_{2017}}{\text{Nashr}_{2018} + \text{Nashr}_{2017}}$$

KVARTIL (chorak) Q – bu ilmiy jurnallarning toifasi bo'lib, u iqtibos darajasini, ya'ni ilmiy jamoatchilik tomonidan jurnalga bo'lgan talab va e'tirofni aks ettiradigan bibliometrik ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Tor sohalar bo'yicha jurnallar tegishli indikator (impakt-faktor yoki jurnal reytingi) larning kamayib borish tartibida joylashtirilib, ro'yxat 4 ta teng qismga bo'linadi. Tartiblash natijasida har bir jurnal to'rtta kvartildan biriga to'g'ri keladi, ya'ni Q1 (nufuzli xorijiy jurnallar tegishli bo'lgan eng yuqori) kvartildan Q4 (eng past) kvartilgacha. Kvartil tizimi jurnalning sifati va darajasini obyektiv baholash imkonini beradi.

Jurnal kvartilini aniqlashda 21000 ga yaqin jurnalni indekslaydigan Scopus ma'lumotlar bazasi uchun SCIMago Journal Rank (SJR) reytingidan, 12500 ga yaqin jurnalni indekslaydigan Web of Science (WoS) ma'lumotlar bazasi uchun Journal Citation Reports (JCR) impakt-faktoridan foydalaniladi.



2- rasm. Kvartillar

Yillik ma'lumotlarning yangilanishi munosabati bilan jurnallar impact-faktor indeksleri har yili o'zgarib turadi.

Maqolaning keltirilishi ilmiy sohada qabul qilingan tadqiqotchining ilmiy ishining ahamiyatini anglatadi va ilmiy jurnallarda chop etilgan adabiyotlar sonini bildiradi.

Tadqiqotchining nashr etilgan ishiga murojaat etish darajasini aniqlash uchun "hirsch indeksi" dan (h-indeks) foydalaniladi. "Hirsh indeksi" 2005 yilda amerikalik olim Xorxe Xirsh tomonidan olimlarning ilmiy faoliyati natijadorligini hisoblash uchun taklif etilgan ko'rsatkichdir. Mazkur indeks ilmiy tashkilot yoki mamlakatning nashr etilgan maqolalari va unga ko'rsatilgan iqtiboslar soniga asoslanadi. Indeksni aniqlashda tadqiqotchining ilmiy maqolalarini har bir maqola bo'yicha iqtiboslarga taqsimlash asosida hisoblanadi.

h-indeksini hisoblash uchun tanlangan olimning asarlari sonining ularning soniga to'g'ridan-to'g'ri mutanosib nisbati qo'llaniladi.


h-indeksining ma'lum bir olim uchun yuqoridagi metodologiyaga muvofiqligini tekshirish uchun quyidagi terminologiyani hisobga olish kerak.

h - muallifga berilgan indeks;

N - olim tomonidan yozilgan maqolalarning umumiy soni;

n - ilmiy nashrlarning iqtiboslari soni (eng ko'p talab qilingan maqolaning iqtibosning maksimal chegarasidan oshmasligi kerak).

Masalan, olimning 10 ta maqolasidan har biriga 10 martadan iqtibos keltirilsa, uning «Hirsh indeksi» 10 ga teng. Agar u 100 ta maqola chop etgan bo'lsayu, har bir maqolaga faqat 1 marta iqtibos keltirilgan bo'lsa, unda uning Hirsh indeksi 1 ga teng bo'ladi.



3- rasm. Hirsh indeksi

ALTMETRIYA (ijtimoiy metrikalar): ilmiy o'Ichov usullari, ilmiy sohalarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va olimlar bilan hamkorlik qilish, ma'lum bir jurnalning iqtibosi mavjudligi talabi va tadqiqotlar mavzusi jurnal impact - factor alternativ sifatini yaratadi. Ijtimoiy ko'rsatkichlar sonini quyidagilar o'z ichiga oladi: ijtimoiy tarmoqlarda, yangiliklar va bloglarda materiallar va eslatmalarni yuklab olish; fikrlar; sharhlar; takliflar va boshqalar. Shu bilan bir qatorda ko'rsatkichlar ilmiy-tadqiqot resurslari va ma'lumot bazalari, ilmiy ijtimoiy tarmoqlar quyidagilar: Google Scholar, ResearchGate, Mendeley, Zotero, Publish or Perish, Plum Analytics va boshqalar.

1.2. Analitik axborot tizimlarining asosiy tushunchalari maqsadi va vazifalari

Analitik axborot tizimlari. Bugungi kunda axborot texnologiyalarini jadal rivojlanishi boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga imkon beradi. Bunga asosan axborot-tahliliy tizimlarni joriy etish orqali erishiladi.

Axborot-tahliliy tizimlar, amaldagi sohaga qaramasdan, barcha asosiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maydonlarni hisobga olgan holda, mavzuga yo'naltirilgan rivojlanishdagi barcha talablarni qondirish zarurligini hisobga olgan holda ishlab chiqilmoqda. Boshqaruvning bunday axborotlashuvi muassasa yoki tashkilotning har bir jihati bo'yicha foydalanuvchi ma'lumotlarining mavjudligi va barqarorligi darajasini kafolatlash uchun mo'ljallangan. Bu muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha yo'nalishlarni hisobga oladi va butun kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmuini amalga oshiradi. Shunday qilib, ta'lim sohasidagi yagona axborot-tahlil tizimi muayyan davlatda ta'lim sohasiga taalluqli barcha ma'lumotlarni, shuningdek, qaror qabul qilishning turli variantlarini o'z ichiga oladi

Analitik axborot tizimlari (AAT) qanday? To'plangan va muntazam yangilanib turiladigan ma'lumotlarni tahlil qilish katta hajmdagi ma'lumotlarni yuqori sifatli qayta ishlash va uning monitoringini o'tkazish bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin. Axborot-tahlil tizimi, o'z navbatida, apparat, axborot manbalari, dasturiy ta'minot yechimlari va boshqa amaliy qo'llanmalarining birlashmasidir. Shu nuqtai nazardan, har bir AAT quyidagi holatlar hisobga olingan holda yaratilgan va ishlab chiqilgan.⁵

1. Ko'p manbalardan bir vaqtning o'zida turli xil ma'lumotlarni olish mumkin. Ushbu ma'lumotlar ko'plab shakllarda taqdim etiladi va keyinchalik yagona shaklga va muayyan tuzilishni integratsiyalashuviga olib keladi.

2. Ma'lumotlarni to'plash va ularning massivlarini yaratish, qidiruv va indekslash texnologiyalaridan foydalanish.

3. Foydalanuvchilarning har biri uchun kerakli ma'lumotlar doimiy ravishda uyushtiriladi, bu qaror qabul qilish, aniq chora-tadbirlar ko'rish yoki tanlangan sohada muayyan harakatlar qilish uchun zarurdir.

⁵Rahmatullayev M.A., Ganiyeva B.I. Jahon axborot resurslari: darslik/M.A. Rahmatullayev, B.I. Ganiyeva; Darslik. -T.: Aloqachi,2019. -188b.

Shunday qilib, tibbiy axborot va tahliliy tizim sog'liqni saqlash sohasiga tegishli ma'lumotlar, mavzular va tuzilmalar bilan bo'linishi kerak.

4. Intellektual va tezkor tahlil qilish vositalari, turli obyektlarni nazorat qilish obyektlarini muntazam va rejali baholashni tayyorlash. Ular hujjatli ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, ekrandagi raqamli hisobot shakllarida taqdim etilishi mumkin.


5. Barcha axborot va uning natijalarini tahlil qilish natijalari qat'iy belgilangan tartibda taqdim etiladi. Bu barcha ma'lumotlarning foydalanuvchilar tomonidan samarali qabul qilinishini ta'minlashi kerak. Masalan, statistika olish va turli monitoringlarni o'tkazish uchun yaratilgan "Monitor" yagona axborot-tahlil tizimini keltiramiz.

Analitik axborot tizimi nima uchun kerak? AAT faoliyatining asosiy yo'nalishi turli xil ma'lumotlar bazasi boshqaruv tizimlarining ilg'or versiyalaridan analitik ekspert ishlarini bajarishga imkon beradigan yanada rivojlangan va sifat darajasiga yo'naltirishdir. Axborot-analitik tizimlarning ishi ushbu usullar bilan olingan ma'lum maydon haqida bilimlarni qo'llashga asoslangan bo'lib, AAT foydalanuvchilari yangi muammolar yuzasidan obyektiv yechimlarni taklif qilishi va keyin ularni amalda qo'llashlari mumkin.

Analitik axborot tizimlarining funktsiyalari. Har qanday xususiy yoki ommaviy axborot va tahliliy tizim ma'lum parametrlar va tizim funktsiyalariga ega. Bularga quyidagilar kiradi:

- Olingan ma'lumotlarning analitik ishlashi uchun mo'ljallangan mablag'lar.
- Analitik ishlov berish uchun ma'lumot taqdim etiladigan ma'lumotlar bazasi.
- Axborotni qayta ishlash sohasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun maxsus qoidalar to'plami.
- Foydalanuvchilarning AA tizimi bilan ishlashiga imkon beruvchi dasturiy va apparat majmui.
- Ma'lumotlarni ko'rsatish, takliflar va muqobil tavsiyalarni yaratish uchun modulli funktsiyalar.

Analitik ma'lumot bazalarini yaratuvchi kompaniyalar – bunday tashkilotlar resurslarni qo'llanilishi, u yoki bu manbaalarga murojatlar bo'yicha, mualliflarga murojatlar, ularning muvofiqlashtirish va boshqa shu kabi



parametrlar bo'yicha tahlillar olib boradi. Bunday analitik vositalar va ma'lumot bazalari manbalarni, ularni yaratuvchilarini baholashda muhim manba bo'lib hisoblanadi. Analitik ma'lumot bazalari va ular bilan ishlash borasida instrument yaratuvchilardan eng taniqli kompaniyalar bu Clarivate Analytics va Elsevier kabi kompaniyalardir.

1.3. Web of Science, Scopus, PlumX kabi analitik tizimlar

Ayni vaqtda ilmiy analitika, naukametriya, ilmiy va ta'limiy muassasalarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq biznes bilan faol shug'ullanadigan kompaniya bu - Clarivate Analytics. Bu kompaniyaning bosh maqsadi – butun bunyodagi mijozlarga ishonchli g'oya va analitikani taqdim etish orqali innovatsiyalar sur'atini oshirish bu esa yangi g'oyalarni zudlik bilan aniqlash, himoyalash hamda tijoratlashtirishga imkon yaratadi. Clarivate Analytics (avval Thomson Reuters egalik qilgan) kolleksiya ega va ularni boshqaradi, ilmiy tadqiqotlar olib borishga mo'ljallangan tashkilotlarni obuna qilishga, patent qidiruvlarini amalga oshirishga, normativ standartlar, farmatsevtik va biotexnologik tadqiqotlar, tovar belgilarini himoyalash, intellektual mulkni boshqarishga asoslangan. Clarivate Analytics hozirda 100 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat yurutuvchi 4000 dan ortiq xodimlariga ega mustaqil kompaniya bo'lib, Cortellis, Thomson Innovation Index, Derwent World Patents, CompuMark, MarkMonitor, Techstreet va boshqa shu singari web-bilimlarni o'z ichiga oluvchi mashhur brendlarga egalik qiladi. Bulardan eng mashhur ma'lumot bazalari bu – WEB OF Core Collection.⁶

Web of science- ilmiy jurnallardagi nashrlarning referativ ma'lumotlar bazalari va patentlar, shu jumladan, nashrlarning o'zaro iqtibos keltirishlarni hisobga oladigan bazalarni birlashtiruvchi qidiruv platformasi bo'lib, Clarivate Analytics kompaniyasi tomonidan rivojlantirilib, taqdim etilgan. Web of Science ijtimoiy, tabiiy, gumanitar, texnik fanlar va san'atga doir materiallarni o'z ichiga oladi. Platforma bibliografik axborot qidiruvi, tahlili va boshqaruvi kabi ajralmas imkoniyatlariga ega.

Web of Science ilmiy jurnallar quyidagi ma'lumotlar bazalarini o'z ichiga oladi:

- Science Citation Index Expanded (SCIE),

⁶ Rahmatullayev M.A., Ganiyeva B.I. Jahon axborot resurslari: darslik/M.A. Rahmatullayev, B.I.Ganiyeva; Darslik.-T.:Aloqachi,2019.-188b.

- Social Science Citation Index (SSCI),
- Arts and Humanity Citation Index (A&HCI)
- Emerging Sources Citation Index (ESCI)

Ma'lumotlar har kuni yangilanadi. Hozirga vaqtda Web of core collection tarkibiga kirgan to'rtta ma'lumotlar bazasida 17 mingta jurnallar jamlangan. Kerakli ilmiy jurnalni tanlashda 12,5 mingta eng nufuzli yuqori impact-faktorli jurnallarni o'z ichiga olgan dastlabki uchta ma'lumotlar bazalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tahliliy vositalar:

Journal Citation Reports - iqtibos keltirish bo'yicha ma'lumotlarga asoslangan, sifatli statistic axborotga ega bo'lgan yetakchi jahon ilmiy jurnallarni tanqidiy baholashning muntazam va obyektiv vositasi hisoblanadi.

Essential Science Indicators- tadqiqotingiz sohasidagi jurnallar, mamlakatlar, nufuzli olimlar, ilmiy ishlar va tashkilotlar, shuningdek ilmiy ish uchun muhim bo'lgan tadqiqot jihatlarini aniqlash uchun barcha zarur resurslarga ega.

InCites- Iqtibos keltirishning takrorlanish darajasini o'rganish asosida tadqiqotlarni baholaydigan online-vosita hisoblanib, ilmiy va davlat tashkilotlarning rahbarlariga o'z ishlarining unumdorligini tahlil qilish va olingan natijalarni butun dunyodagi hamkasblari bilan qiyoslash imkoniyatini beradi.⁷

Web of Science ilmiy axborot bo'yicha dunyodagi eng nufuzli platforma bo'lib, olimlar tomonidan ularning ilmiy faoliyatining har bir bosqichida, xalqaro reyting ilmiy jurnallarida chop etish zarur bo'lgan resurslarni taqdim etadi:

- tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlarni qidirish, tadqiqot mavzusining yangiligiga asoslangan Web of Scienceda 254 dan ortiq mavzular ya'ni. barcha fan sohalari qamrab olingan.

- dunyodagi eng dolzarb, ishonchli va keng ilmiy ma'lumotlarga kirish (yetakchi xalqaro jurnallardagi ilmiy maqolalar - 34000 dan ortiq jurnallar platformasida, Web of Science Core Collection asosiy to'plamida - 21000 dan ortiq dunyodagi ommabop va yuqori sifatli ilmiy jurnallar,

⁷<https://www.webofknowledge.com>

konferentsiyalar - 10,5 milliondan ortiq ma'ruzalar va 200 000 dan ortiq konferentsiyalar materiallari, kitoblar - 100 000 dan ortiq).

- ochiq kirish (Open Access) ilmiy jurnallaridan, aralash (obunasz) turdagi jurnallardagi ochiq maqolalardan to'liq elektron shakilda va obuna paytida mualliflik jurnalining nashrlari tomonidan ko'rib chiqilgan va nashrga tayyor bo'lgan shakilda kirish. Yopiq jurnallarda Clarivate Analytics kompaniyasining Google Scholar va ImpactStory bilan eksklyuziv shartnomasi bo'yicha, Web of Science to'liq matnli jurnallar va maqolalarga havolalar mavjud.

- ilmiy maqola yozish - Web of Science EndNote funksiyasiga kirishni ta'minlaydi, bu olimlarga xalqaro jurnallar talablariga muvofiq ilmiy maqolalar tayyorlashda yordam beradi.

- tadqiqot mavzusiga bag'ishlangan ilmiy maqola chop etish uchun eng maqbul ilmiy jurnalni tanlash uchun dunyoda 100000 dan ortiq ilmiy jurnallar mavjud, Web of Science qisqa vaqt ichida olimlar va tadqiqotchilarga jurnallar ro'yxatlarini topishda va shakllantirishda yordam beradi. Web of Scienceda "Ta'magir" jurnallar indekslanmagan - MDH mamlakatlaridagi ko'plab olimlar duch keladigan muammo, Web of Science olimlarga ushbu muammodan qochishga va o'z tadqiqotlarida xalqaro yuqori sifatli ilmiy jurnallarni topishga yordam beradi.

- Russian Science Citation Index (Web of Science platformasining bir qismi) doirasida olimlar 2015 yilda eLibrary (RINS) bilan hamkorlikda yaratilgan 1000 dan ortiq eng nufuzli rus tilidagi jurnallarning noyob to'plamiga kirishlari mumkin.

- tadqiqotingiz natijalari bilan ishtirok etishingiz mumkin bo'lgan eng nufuzli xalqaro konferentsiyalarni qidirib topish imkoniyati.

- xalqaro grantlar va ularning tadqiqotlari uchun qo'shimcha mablag' manbalarini qidirish - Web of Science platformadagi ilmiy jurnallarda chop etilgan tadqiqotlar doirasida barcha moliyalashtirish tashkilotlariga kirish imkoniyatini beradi.

- tijoratlashtirish jarayoni - Web of Science shuningdek, ilmiy natijalarni tijoratlashtirish bosqichining bir qismi bo'lgan patentlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlaydi - 80 milliondan ortiq patentlar.

Web of Science olimning tadqiqot jarayonining har bir bosqichini qo'llab-quvvatlaydi, uni sifatli tadqiqot o'tkazish uchun to'liq axborot resurslari va analitik vositalar bilan ta'minlaydi va ushbu tadqiqot

natijalarini mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini amalga oshirish uchun to'g'ri sektorni aniqlaydi.

Scopus. Elsevier – kompaniyasi dunyodagi yetakchi ilmiy-texnik, meditsina adabiyotlarining analitik bazalarini yig'uvchi kompaniyalaridan biri bo'lib, fan va ta'limdagi axborot yechimlarining asosi hisoblanadi. 1880 yili Amsterdamda (Niderland) tashkil etilgan bo'lib, Buyuk Britaniya, AQSh, Braziliya va boshqa mamlakatlarda filiallarga ega.⁸

Scopus taxminan 11.678 nashrdan 36.377 (22.794 faol mavzular va 13.583 kam foydalaniladigan mavzular) mavzularni o'z ichiga oladi. Ularning 34,346 tasi mashhur jurnallardagi yuqori darajadagi sohaga oid resurslar: hayot fanlaridan, ijtimoiy fanlar, fizika fani va sog'liqni saqlash fanlari.

Scopus tizimi uch xil turdagi manbalarni o'z ichiga oladi: elektron davomli nashrlar, jurnallar va elektron ilmiy resurslar. Scopus ma'lumotlar bazasida saqlanadigan barcha jurnallar, kimlar tomonidan chop etilishidan qat'iy nazar, yuqori sifat standartlarini ta'minlash uchun har yili qayta ko'rib chiqiladi. To'liq ro'yxat SCImago Journal Rank web-saytida ko'rsatib o'tiladi. Scopusda har bir resurs uchun to'rt turdagi tahliliy o'lchov beradi; Ular h-Index, CiteScore, SJR (SCImago Journal Rank) va SNIP (Resursning tartiblashgan miqdori). 2009 yil o'rtalaridan boshlab Scopus 38 mln nashrni, shu jumladan, 1996 yildan so'ng nashr etilgan 19 mln manbaning bibliografiya ro'yxatlarini o'z ichiga oldi.

Scopus tahliliy tizimining 24 ta tematik bo'limi mavjud. Scopus resurslari ingliz tilidagi annotatsiyaga ega bo'lsa ham, turli tillarda nashr etilgan ilmiy manbalarni ko'rsatib beradi.

Scopus ma'lumotlar bazasi ilm-fanga oid ishonchli manbalarni olish va nashrlarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Journal analitik vositasi orqali to'rtta asosiy ko'rsatkich bo'yicha ilmiy nashrlarning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi.⁹

- Yil davomida nashr etilgan nashrlarning umumiy soni;
- yil davomida boshqa nashrlardagi nashrlar umumiy soni;
- Yil trendi (nashrga havolalar soni nashrda e'lon qilingan maqolalar soniga nisbati);

⁸<https://www.scopus.com>

⁹ Rahmatullayev M.A., Ganiyeva B.I. Jahon axborot resurslari: darslik/M.A. Rahmatullayev, B.I.Ganiyeva; Darslik.-T.:Aloqachi,2019.-188b.

- Kiritilgan maqola soni.
- Scopus tasniflagichi (klassifikatori) – ASJC (Barcha Ilmiy Sohalarga oid Jurnallarning Tasniflagichi)– 27ta asosiy ilmiy sohalar va jami – 334ta soha yo‘nalishlari, ularning turkumlarini o‘z ichiga oladi.
- Ilmiy jurnallarni baholash uchun Scopus «baholash ko‘rsatkichlar»idan foydalanadi, yuqorida keltirilgan SJR, SNIP va CiteScore indikatorlari esa undagi asosiy bibliometrik ko‘rsatkichlar deb hisoblanadi. (<https://journalmetrics.scopus.com>).
- Hozirgi kunda Scopus dunyoning 5 mingga yaqin nashriyotlariga mansub bo‘lgan 22 mingta jurnallarni indekslaydi va undagi ma‘lumotlar har kuni yangilanadi. (<https://www.elsevier.com/solutions/scopus/content>)

Master Journal List Clarivate Analytics
(<http://ip-science.thomsonreuters.com/mjl/>)

- Clarivate Analytics ma‘lumotlar bazasining platformasidagi hamma ma‘lumotlar bazalarida indekslanadigan barcha jumallar haqidagi ma‘lumotni o‘z ichiga olgan.
- Ushbu platformada jami 24ta ma‘lumotlar bazasi mavjud bo‘lib, ulardan faqat to‘rttasi Web of Sciencega mansubdir.
- Kerakli jurnalni WoS ma‘lumotlar bazasida indekslanishini tekshirish uchun, WoS platformasi yoki ushbu kompaniyaning boshqa referativ ma‘lumotlar bazalaridan foydalanish mumkin.
- Foydalanish bepul.

Scopus Source List

(<https://www.elsevier.com/solutions/scopus/content>)

- Scopusda indekslanadigan jurnallar va boshqa nashr (konferensiya, kitob)larni Excel-fayl shaklidagi ro‘yxati bo‘lib, foydalanish uchun bepul.
- ASJC tasniflash kodlarining ro‘yxati ham ushbu Excel-faylga kiritilgan.

- Scopusga kiritilgan jurnallar ro'yxati,
- Muayyan turkum mavzusiga oid jurnalni saralash va tanlash imkonini beradigan soha yo'nalishlari va turkumlarini tasniflovchi kodlar.
- Jurnal tanlashda, avval Scopus ro'yxatidan chiqib ketgan, ya'ni unda indekslanmaydigan jurnallarni ajratib olish zarur: bunda F ustuni - «Active or Inactive» bo'yicha jurnallarni saralash va shaxsiy fayldan «Inactive» belgisi bo'lgan jurnallarni chiqarib tashlash kerak.
- Ro'yxat jurnallarning (SJR, SNIP, CiteScore) uch yillik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi, bu esa nafaqat jurnallarni ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha saralash, balki ko'rsatkichlar o'zgarishi dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi. Jurnallar ro'yxati har chorak (kvartal)da yangilanadi.

Scopusda indekslanadigan ROSSIYA jurnallarining ro'yxati (<http://elsevierscience.ru/products/scopus/>)

- Elsevier nashriyotining rus veb-saytida e'lon qilinadi va doimiy ravishda yangilanadi.
- Scopusda 410dan ziyod Rossiya jurnallari indekslangan (2019)
- Ro'yxatda jumallarning nashriyoti, mavzusi va ularni indekslanishining davriy qamrovi ko'rsatiladi.

Scopus Discontinued Sources List

- Scopusda indeks qilinishi to'xtatilgan shu jumladan axloqiy (etik) me'yorlar buzilganligi tufayli cheklangan jurnallar ro'yxati. Bu ro'yxat ham Scopus rasmiy saytida e'lon qilinadi. (Content Coverage – <https://www.elsevier.com/solutions/scopus/content>).

Foydalanish bepul.

Scimagojr.com, SCImago Journal & Country Rank (<http://scimagojr.com/>)

- Scopus ma'lumotlariga asoslangan ommaviy portal.
- Jurnallar va mamlakatlarning ilmiy ko'rsatkichlari yoki alohida har bir jurnal yoki mamlakat tahlilini o'z ichiga oladi.
- Tizim 27ta asosiy soha yo'nalishlari va 313ta aniq soha turkumlari, yoki mamlakat bo'yicha jurnallar ro'yxatini yuklab olish imkonini beradi.

- Jurnallar ro'yxati, yuklashdan oldin tanlangan jurnallarning turli parametrlari (SJR, Xirsh indeksi) bo'yicha tartibga keltirilib, Excel faylga yuklanadi.
- Ro'yxatda jurnal hajmi (yiliga maqolalarning soni), adabiyotlar ro'yxatidagi havolalarning o'rtacha soni, noshir bo'yicha ma'lumotlar, shuningdek jurnalni tahlil qilish va tanlash uchun boshqa foydali bo'lgan ma'lumotlar ko'rsatilgan.
- Journal Finder–maqolaning sarlavhasi, annotatsiyasi, kalit so'zlari yordamida kerakli jurnalni qidirish bo'yicha bepul tizim bo'lib, Elsevier nashriyoti tomonidan taqdim etilgan. (<http://journalfinder.elsevier.com>)

Eng yirik nashriyotlarning platformalari:

- Elsevier (<http://www.sciencedirect.com/>),
- Springer (<http://link.springer.com/>),
- Wiley (<http://onlinelibrary.wiley.com/>) va b.

Yuqorida ko'rsatilgan va boshqa nashriyotlarning platformalarida soha yo'nalishlari bo'yicha jurnallarni tanlash imkoni bor. Agar jurnal Scopus va/yoki WoS ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa, jurnal ushbu indiktorlarni o'z veb-saytida e'lon qiladi.

PlumX - tadqiqot va ilmiy mahsulotlarning ishlatilishi va ta'siri haqida ma'lumot beruvchi veb-bazaga asoslangan tizimdir. Bu webimetrik ma'lumotlar kichkina, ammo yuqori sifatda ilmiy baholash mezoniga tegishli tizim. Bu tizim Mendeleydagi hujjatlarni saqlash, yuklab olish kabi vazifalarni o'rganish va ulardan foydalanishdagi tadqiqotlar natijalarini anglatadi¹⁰. Altmetrics shuningdek, maqolalar, mualliflar, ma'lumotlar to'plamlari, raqamlar va videolar kabi keng miqyosli ilmiy mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Tadbirlar chog'ida quyi metrikalar tadqiqotning qanday va qayerda bo'layotgani va muhokama qilinayotganligi va kim tomonidan taqdim etilgani haqida dalillar taqdim etadi.

Foydalanuvchi tashkilotidagi hisob boshqaruvchilari PlumX asboblari panelida alohida tadqiqotchilar va guruhlar uchun profil yaratishlari mumkin. Guruhlar turli tashkilotlar, masalan, laboratoriya, bo'lim va

¹⁰ Priem J. Altmetrics. In: Cronin B, Sugimoto C. R, editors. Beyond bibliometrics: harnessing the multidimensional indicators of scholarly impact. Cambridge, MA: MIT Press; 2014. pp. 263–81

institutlar yoki tadqiqot natijalari to'plamlari kabi tadqiqotchi munosabatlarini aks ettirishi mumkin. PlumX dagi tadqiqot mahsulotlari Artifact deb ataladi va xalqaro standart kitob raqami (ISBN), obyektning raqamli identifikator (DOI) yoki PubMed identifikatori kabi noyob identifikator bilan jonli ravishda mavjud bo'lgan har qanday tadqiqotlar natijalarini onlayn ravishda o'z ichiga oladi. Misol uchun, tadqiqotchi profilida maqolalar, ma'lumotlar to'plamlari, raqamlar, patentlar va ilmiy tadqiqotlar bo'lishi mumkin. PlumX, ORCID, Scopus va Web of Science tadqiqot axborot tizimi (RIS) va BibTex fayllari, SlideShare profili identifikatorlari va Github profil identifikatorlari kabi turli xil mexanizmlar orqali tadqiqot natijalarini ommaviy olib kirishga yordam beradi. DOI, yagona resurs manbalari (URL), ISBN va boshqa noyob identifikatorlar tadqiqotchilar yoki guruhlar profillariga ham qo'shilishi mumkin. Tadqiqotchi va guruh sahifalarida tasvirlar, biografik ma'lumotlar va aloqa ma'lumotlari bo'la oladi. Obuna muallifi o'z profil ma'lumotlarini ommaviy yoki xususiy qilishni tanlaydi.

«Ta'magir» nashrlar.

Maqolani qanday jurnalda nashr qilmaslik kerak!

Mualliflarni ilmiy maqolasini nashr qilishda daromad olish maqsadida aldov yo'li bilan nashr qiluvchi jurnallarni «ta'magirlar», «parazitlar» jurnallari deb atashadi. Bunday nashrlar ilm-fan va olimlardan daromad olish vositasi sifatida foydalanishadi va bunday jurnallarda chop etilgan tadqiqot natijalari ishonchli bo'lmashligi mumkin.

“Ta'magir jurnallar”:

- plagiat, qalbaki, uydirma va avval chop etilgan materiallarni takrorlash kabi holatlarni o'z ichiga oladi;
- mutaxassislar tomonidan taqrizdan o'tkazilmaydi;
- o'z-o'ziga iqtibos keltirish yoki kelishuvli iqtibos keltirishlar yuqori darajada bo'ladi.

Bunday jurnallarda maqolalar chop etish mualliflar, hammualliflar va tadqiqotni moliyalashtiradigan tashkilotlar tomonidan muallifning obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

«Ta'magir» jurnallarning belgilari:

- Jurnal qisqa muddat (2–3 kun, 1 haftada va h.k.) ichida maqolani nashr qilish taklifi bilan spam xabarnomalarni yuboradi, maqolalar taqriz va tahrirdan o'tkazilmaydi;
- Jurnal o'zi to'g'risida yolg'on ma'lumotni ko'rsatadi (masalan, Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalariga kiritilganligi haqida), soxta iqtiboslar indekslarini beradi, ISSN ni ko'rsatmaydi;
- Jurnalda ilmiy mavzularning keng doirasi (keng ko'lamdagi soha yo'nalishlar qamrovi) bo'yicha maqolalar nashr etiladi;
- Saytda mualliflar uchun yetarli ma'lumot yo'q, jurnalning tahririy siyosati va noshirlik etikasi, taqriz va pullik xizmatlar (agar mavjud bo'lsa) haqidagi ko'rsatmalar oshkor qilinmaydi;
- Jurnalda ko'plab maqolalar juda kam hajmda berilgan, tahminan 3-4 bet.
- Jurnalning bitta sonida juda ko'p miqdorda maqolalar beriladi (40 ta va undan ortiq);
- Jurnalda konferensiyalar materillari nashr etiladi;
- Jurnal tahririyat tomonidan maqolaning ilmiy darajasini oshirishni taklif qiladi;
- Jurnal har qanday ilmiy matnlarni qabul qilishini o'z veb-saytida e'lon qiladi;
- Jurnal dastlab o'z web-saytida pullik xizmatlar to'g'risida ma'lumot bermasdan, postfaktum, ya'ni maqolani qabul qilgandan keyin, uni nashr etish uchun haq to'lashni talab qiladi;
- Jurnal o'z xodimlari, mutaxassislari va tahririyat a'zolarining ismi va familiyalarini yashiradi. Agar bu jurnal vijdonan o'z faoliyatini yuritsa, ushbu ma'lumotlar oshkor qilinishi kerak, shunda mualliflar bu odamlarning vakolatlarini tekshirishlari mumkin bo'ladi;
- Tahririyat, masalan, pullik taqrizlar tayyorlash bo'yicha agentlik xizmatlarni taklif qiladi (bularga qo'lyozmani tarjima qilish, tahrir qilish yoki texnik tayyorlash kabi yuridik xizmatlar kirmaydi);
- Jurnal hammualliflikni mablag' evaziga taklif qiladi;

Maqola chop etish uchun ilmiy jurnalni qayerdan tanlab olish mumkin?

1. Scopus va Web of Science tahliliy tizimlarida bo'lg'usi maqolaning kalit so'zlari bilan tuzilgan tematik so'rovlar bo'yicha qidirish orqali;
2. Scopus va Web of Science da indekslanadigan jurnallar ro'yxatidan;
3. Journal Citation Reports (JCR) – ixtisoslashgan ma'lumotlar bazasidan;
4. Maxsus jumallarni qidirish va tahlil qilish bo'yicha qo'shimcha vositalardan (Scimagojr.com, Journal Finder, Journal Metrics, Springer Journal Selector, Edanz Journal Selector va b.);
5. Yetakchi nashriyotlarni platformalarida soha yo'nalishlari yoki maqolalarning metama'lumotlari bo'yicha tematik qidirish orqali. link.springer.com, <http://www.nature.com/search/advanced> va h.k.).


Muallifning affiliasiyasi (Аффилиация автора). Ingliz tilidan tarjima qilingan affilia (affiliation) ulanish, aloqa o'rnatishni kabi ma'nolarni anglatadi. "Institutional affiliation" yoki "academic affiliation" tushunchalari ilmiy maqola natijalari keltirilgan ish joyini ko'rsatadi. Ko'pincha bu "muallif haqida ma'lumot" deb tarjima qilinadi, bu aslida to'g'ri emas. Muallifning o'zi haqidagi ma'lumotlar, masalan, lavozimlar, unvonlar, ilmiy darajalar, ishlash tashkiloti, muallif bilan bir qatorda joylashtirilmasligi kerak.

Immetrik ma'lumotlar bazalari faqat muallifning familiyasi, ismi va uning ma'lum bir tashkilotga aloqadorligi bilan qiziqadi.

